

# Koreyada istiqomat qiluvchi (18 yoshdan oshgan) chet elliklar uchun uchinchi(booster) emlash haqida ma'lumot

Vaqt o'tishi bilan emlashning samaradorligi pasayadi, bu esa infektsiya yuqish xavfini oshiradi. COVID-19 ga qarshi uchinchi emlash(booster) amalga oshirilsa, faqat asosiy emlashdan ko'ra infektsiyalar va jiddiy kasalliklar yuqishining oldini olishda katta samaraga ega.

So'nggi paytlarda tasdiqlangan COVID-19 holatlari orasida chet elliklar soni juda yuqori, uchinchi(booster) emlash darajasi esa fuqarolariga nisbatan past. Shunga ko'ra Koreada xavfsiz hayot kechirish uchun iltimos, uchinchi emlashni amalga oshiring.

**Koreyada yoki xorijda asosiy emlashni tugatgan 18 yoshdan oshgan xorijliklar 3-emlash (booster)ni bepul olishlari mumkin.**

- Emlash muddati
    - Asosiy emlash tugagandan keyin 3 oy (90 kun) o'tgach, uchinchi emlashni olish mumkin. Janssen vaktsinasini oluvchilar 2 oy (60 kun) o'tgandan keyin ikkinchi vaktsina(booster)ni olishlari mumkin.
      - \* Asosiy emlash: Pfizer, Moderna va AstraZeneca vaktsinalari 2 marta, Janssen vaktsinasini 1 marta
      - Agar asosiy emlashni tugatganingizdan keyin 6 oy ichida uchinchi emlashni olmasangiz, "방역패스" karantindan chetlatish huquqiy emas deb hisoblanib, uchinchi emlashni olsangiz huquqiyligi darhol tan olinadi
    - Hozirda uchunchi emlash mRNA vaktsina(Pfizer, Moderna)lar bilan amalga oshirilmoqda. Biroq, Janssen vaktsinasini olganlar orasida, agar ikkinchi emlash (booster)dan ko'ra Janssen vaktsinasini olishni istasangiz, eng yaqin jamoat sog'liqni saqlash markaziga murojaat qiling.
    - Sizda tibbiy sug'urta bormi yoki yo'qligidan qat'i nazar, siz vaktsinani COVID-19 ga qarshi emlashni ta'minlaydigan tibbiy muassasa yoki sog'liqni saqlash markazida olishingiz mumkin.
  - Vaktsina turi va emlash joyi
    - Hozirda uchunchi emlash mRNA vaktsina(Pfizer, Moderna)lar bilan amalga oshirilmoqda. Biroq, Janssen vaktsinasini olganlar orasida, agar ikkinchi emlash (booster)dan ko'ra Janssen vaktsinasini olishni istasangiz, eng yaqin jamoat sog'liqni saqlash markaziga murojaat qiling.
    - Sizda tibbiy sug'urta bormi yoki yo'qligidan qat'i nazar, siz vaktsinani COVID-19 ga qarshi emlashni ta'minlaydigan tibbiy muassasa yoki sog'liqni saqlash markazida olishingiz mumkin.
  - Qanday qilib bron qilish kerak
- ① **Koreyada asosiy emlashlarni olgan xorijliklar**
- 1) **Ro'yxatdan o'tgan chet el fuqarosi: bron qilish asosiy emlash bilan bir xil tarzda onlayn yoki telefon orqali amalga oshirilishi mumkin.**
    - \* Onlayn bron qilish: Korona 19 vaksinatsiyasini oldindan bron qilish tizimiga kiring (<https://ncvr.kdca.go.kr>) va shaxsingizni tasdiqlaganingizdan so'ng bron qiling.
    - \*\* Telefon orqali bron qilish: Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish bo'yicha qo'ng'iroqlar markazi (☎1339) yoki mahalliy hukumat tomonidan bron qilish bo'yicha maslahat olish uchun telefon raqami (<https://ncv.kdca.go.kr> → "Korona 19 vaksinatsiyasi bo'yicha qo'ngoroq orqali bron qilish holati"ni tekshiring)
  - 2) **Ro'yxatdan o'tmagan chet elliklar (shu jumladan, noqonuniy immigrantlar): Siz asosiy emlash vaqtida sog'liqni saqlash markazi tomonidan berilgan vaqtinchalik boshqaruv raqamidan foydalanib, telefon orqali yoki emlash muassasasiga (tibbiyot muassasasi yoki davlat sog'liqni saqlash markazi) tashrif buyurib, bron qilishingiz mumkin.**
- ② **Chet elda asosiy emlashni tugatgan chet elliklar (mamlakatda qolish muddati 90 kundan kam bo'lgan chet elliklar ham tegishli)**
- Siz shaxsiy guvohnomangiz bilan yaqin atrofdagi sog'liqni saqlash markaziga tashrif buyurib, vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish raqamini olsangiz shu bilan birga chet elda emlanilganlik haqida ro'yxatdan otish orqali telefon yoki emlash muassasasiga (tibbiyot muassasasi yoki sog'liqni saqlash markazi) shaxsan tashrif buyurib, bron qilishingiz mumkin.
  - \* Ro'yxatdan o'tgan chet elliklar ro'yxatga qo'yish raqamini olishlari shart emas.

## ※ Malumot

- Shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar faqat emlash maqsadida qo'llaniladi, habar qilish majburiyati bekor qilish tizmiga  
ko'ra sizning mamlakatda noqonuniyligingiz immigratsiya idorasiga bildirilmaydi.
- Batafsil ma'lumot uchun Koreya Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlarining (KCDC) COVID-19 ga qarshi emlash veb-saytiga murojaat qiling (<https://ncv.kdca.go.kr>).



AYOLLAR VA OILA VAZIRLIGI



Koreya Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi